

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

Кириш сўзи	6
1. Xolbekov Abdug‘ani KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
2. Убайдуллаева Раиса ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
3. Сеитова Зухрагон ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
4. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
5. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
6. Ходжаев Собир ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
7. Абдувалиева Мумтозхон СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
10. Nematova Dilfuza KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
11. Eshmanova Iroda TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
12. Teshayev Doniyor OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
13. Pخomov Umrbek O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
14. Nurqulov Bunyod YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
15. Qobilov Uchqun DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114


16. Izzatulloeva Kamilla IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
17. Burxanov Xusniddin AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
18. Imomova Nozimaxon O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Илхомов Умрбек,
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Sotsiologiya” kafedrası o‘qituvchisi
ilxomov_u@nuu.uz

О‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOYILASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423481>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlarini adabiyotlar tahlili orqali o‘rganilgan. Olimlarning nazariyalarida yoshlarning ijtimoiylashuvi to‘g‘risida alohida fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan. Avvalambor, G‘arb olimlarining qarashlari ijtimoiylashuv bo‘yicha keltirib o‘tgan fikrlari sanab o‘tilgan. Ulardagi yoshlar tushunchalar, xorij mamlakatlaridagi yoshlar muammolari aytib o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekiston hududida yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlari, yoshlarga bo‘lgan e‘tibor, ularning ijtimoiylashuviga turtki bo‘luvchi omillar jarayonlar yoritilgan. Ayniqsa, O‘zbekiston mahallalarida yoshlarning shakllanish xususiyatlari bosqichma-bosqich keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiylashuv, fundamental, yoshlar siyosati, yosh avlod, axloq, individ, odob-axloq, yoshlarning ijtimoiylashuvi, jarayonlar, mahalla yoshlari, yosh oila.

Ильхомов Умрбек
Национальный университет Узбекистана
Преподаватель кафедры «Социология»
ilxomov_u@nuu.uz

ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССОВ СОЦИАЛИЗАЦИИ МОЛОДЕЖИ В МАХАЛЛЯХ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе анализа литературы исследуются процессы социализации молодежи. В теориях ученых приводятся особые мнения о социализации молодежи. Прежде всего, перечисляются взгляды западных ученых на социализацию. Упоминаются молодежные концепции и проблемы молодежи в зарубежных странах. А также процессы социализации молодежи на территории Узбекистана. Особое внимание уделяется молодежи, факторам, способствующим их социализации, и процессам. Особенно в микрорайонах Узбекистана постепенно внедряются особенности формирования молодежи.

Ключевые слова: молодёжь, социализация, фундаментальный, молодёжная политика, молодое поколение, нравственность, индивид, морально-нравственные устои, социализация молодёжи, процессы, молодёжь махалли, молодая семья.

Ilxomov Umrbek,
National University of Uzbekistan
Lecturer of the Department of “Sociology”

FEATURES OF THE PROCESSES OF SOCIALIZATION OF YOUTH IN THE MAHALLAS OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

In this article, based on the analysis of literature, the processes of socialization of young people are investigated. In the theories of scientists, special opinions are given about the socialization of young people. First of all, the views of Western scientists on socialization are listed. Youth concepts and problems of youth in foreign countries are mentioned. As well as the processes of socialization of young people on the territory of Uzbekistan. Particular attention is paid to young people, the factors that contribute to their socialization and the processes. Especially in the microdistricts of Uzbekistan, the peculiarities of youth formation are gradually being introduced.

Keywords: youth, socialization, fundamental, youth policy, young generation, morality, individual, moral foundations, socialization of youth, processes, youth mahalla, young family.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarning jamiyatda ijtimoiy faolligi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Yoshlarning shakllanishida ijtimoiy odob-axloq qoidalari, qadriyatlarini rivojlantirishda mahallaning oʻrni beqiyosdir. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonlarida shaxsiy rivojlanishi, milliy va madaniy qadriyatlarni egallashi, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy faol yosh pozitsiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekiston sharoitida mahalla anʼanaviy ravishda yoshlarning taʼlim tarbiyasi va ijtimoiylashuvida muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Shuningdek, texnologik taraqqiyot rivojlanayotgan bir davrda mahalla hududida yoshlarning rolini qayta koʻrib chiqishni talab qilmoqda.

METODOLOGIYA

Soʻnggi yillarda Yoshlar ijtimoiylashuv jarayonlari masalasi tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. Maʼlumki, Yoshlar ijtimoiylashuvi bizning aynan jamiyat aʼzolarining kayfiyatiga juda katta taʼsir oʻtkazadi. Zahiriddin Muhammad Boburning qarashlarida shuni aytish mumkinki, Inson doʻstlikni hayotni, uning har bir fursatini qadrlashi, qaygʻu-hasrat bilan emas, xulq-atvori bilan yoshlarga ibrat boʻlishi darkor. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yoshlar bilan ochiq muloqotda Qanchalik qiyin boʻlmasin, biz yoshlar tarbiyasi boʻyicha oʻzimizga xos va taʼsirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzgʻunchi va zararli gʻoyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, maʼnaviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol boʻlishingiz kerak. Xalqimizning maʼnaviy qudrati va boqiy anʼanalarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz [1]. Demak, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muammolar koʻrishimiz mumkin. Yoshlarning ijtimoiylashuvida oiladan tortib mahalla xodimlari har bir tashkilotdagi rahbarlar ham masʼuldir. Yoshlarning ijtimoiylashuvida mahalla hududida kerakli shart-sharoitlar yaratilishi, ularga milliy qadriyatlar, anʼanalar, taʼlim tarbiya berilishi uchun barchamiz hissamizni qoʻshishimiz darkor. Shuningdek mavzuni nazariy asoslarini tadqiq etishda avvalambor, Gʻarb va Sharq olimlarining urf-odatlarini, qadriyatlarini, taʼlim-tarbiyaga oid manbalarni tahlil qilishda muhim rol oʻynaydi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda yoshlarga bagʻishlangan ishlar mavjud. Biroq biz ushbu mavzuni yoshlar ijtimoiylashuvi misolida oʻrganishga qaror qildik, unda tadqiqotning yangiligi ifodalanadi. Maʼlumki, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoni shakllanishi jamiyat uchun katta hissa qoʻshadi. Masalan, Ijtimoiylashuv masalasini tadqiq etish natijasida bugungi kunda yangi-yangi xulosalar shakllanmoqda. Tadqiqotchi A.Kovalyevaning yozishicha, ijtimoiylashuv oʻz navbatida barcha ijtimoiy jarayonlarni qamrab olgan boʻlib, yaʼni individning belgilangan normalar va qadriyatlarni oʻzlashtirish va jamiyat aʼzosi sifatida keng qamrovli foydalanishni aks etadi [2, – C.351]. Keling

birinchi navbatda yoshlar siyosati mustaqil atama sifatida olimlarning qachon ilmiy adabiyotlarda qo'llanilganligi to'g'risida fikr mulohazalarini keltirib o'tamiz. "Yoshlar siyosati" mustaqil atama sifatida 1960-yillarda ilmiy adabiyotlarda ta'riflangan bo'lib, u asosan "yoshlarning mustaqil ijtimoiy kuch sifatida paydo bo'lishi va ijtimoiy-siyosiy makonda o'z taqdirini o'zi belgilashi bilan bog'liq" [3, – C.278]. Shunday ekan, fan nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, Yoshlar siyosati atamasi XX asrning 1960-yillarida ilmiy atamashunoslikka kiritilgan. Demak tadqiqotlar misolida oladigan bo'lsak, Yoshlar siyosati ayrim mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun Grachev.E.N tadqiqot ishida shunday deb keltirib o'tilgan.

XX asrning 1970-yillarda rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida yoshlarga oid siyosat milliy siyosatning mustaqil yo'nalishiga aylantirilmoqda [4, – C.24]. Yana bir tadqiqotchi Samsanov.A.Vning yoshlar siyosati bo'yicha quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi. Yoshlar muammolari sohasidagi sotsiologik bilimlar fundamental nazariy va amaliy ilmiy tadqiqotlar doirasida turlicha, ammo ma'lum darajada bo'laklarga ega. Nisbatan yosh bo'lishiga qaramay, jamiyatdagi yoshlar muammolarini hal etish nazariyasi va amaliyoti o'z tarixiga ega bo'lib, u XIX-asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi, o'sha paytda Yevropa mamlakatlarida yoshlar jamiyati eng kambag'al qismi sifatida e'tirof etilgan, yordamga muhtoj qatlam sifatida fikr yuritilgan [5, – C.17].

Yoshlar tarixiy shakllanish jarayonining har bir jamiyatda yoshlar siyosati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi yoshlarning ijtimoiylashuv xususiyatlarni ochib berishdan iborat. Jumladan, yoshlar ijtimoiylashuv sharoitida oila, ta'lim, jamiyatdagi ijtimoiy muhit hisoblanadi. Atoqli rus ijtimoiy olimi P.A. Sorokin o'ziga xos tarzda sotsialistik qarashlarga xayrixoh bo'lib, an'anaviy oilaning inqirozini, uning yosh avlodga nisbatan "vasiylik va tarbiyaviy mas'uliyatini" yo'qotishini umuman tabiiy, progressiv jarayon – "insonni yanada ijtimoiylashtirish, uni kelajakka, yanada mukammal jamiyatga tayyorlash yo'lidagi birinchi qadam" deb talqin qildi. "Bu uning ma'nosi va ahamiyati, shuningdek, ijobiy tomoni ham meni oila tarbiyasini ijtimoiy tarbiya bilan almashtirishni axloqning pasayishi, "axloqiy tanazzul" belgisi – har qadamda ko'p eshitiladigan "xo'rsinish" deb biladigan barcha "xo'rsinib"ga salbiy munosabatda bo'lishga undaydi" deb yozadi olim [6, – C.79].

Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini tadqiq etish natijasida tadqiqotchi Y.V.Kondratyeva yozishicha, Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi – bu shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonining buzilishi. Ijtimoiy moslashuv belgilari: axloqiy va huquqiy me'yorlarning buzilishi, xulq-atvorning antisotsial shakllari va qadriyatlar yo'nalishi tizimining deformatsiyasi, oila va maktab bilan ijtimoiy aloqalarni yo'qotish, ruhiy salomatlikning keskin yomonlashishi, erta o'smirlik alkogolizmi, o'z joniga qasd qilish tendensiyalari. Ijtimoiy moslashuv – bu qaytariladigan jarayon, shuning uchun nafaqat o'spirinlarning ijtimoiy rivojlanishidagi og'ishlarning oldini olish, balki ijtimoiy moslanmagan bolalar va o'smirlarni qayta ijtimoiylashtirish jarayonini boshqarish ham mumkin [7, – C.209].

Vaholanki, N.Pomuranning e'tirof etishicha, ijtimoiylashuv – bu individ tomonidan butun umr davomida o'z jamiyatiga taalluqli bo'lgan ijtimoiy rollar, odob-axloq normalar, milliy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirilishi jarayonidir. Bunda ijtimoiylashuv jarayoni yosh davrlar bilan chegaralanmaydi, balki u individning butun hayoti davomida ijtimoiy ko'nikmalar va tajribalarni egallash orqali namoyon bo'ladi [8, – B.23].

Yoshlarning ijtimoiylashuvida oila, maktab, mahallaning o'rni beqiyosdir. Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalarning roli muhim. Chunki, yoshning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim tarbiyani ota-ona tomonidan aks etadi. Demak, yoshlar ijtimoiylashuvi va shakllanish jarayonida ko'rib turganimizdek bir qancha sabab, oqibatlar keltirishimiz mumkin. Yoshlarning o'smir yoshidan balog'at yoshigacha bo'lgan davrda yoshlarning ijtimoiylashuvida har bir jarayon muhim hisoblanadi. Fikrimizcha, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoni ilk bor oiladan boshlanadi. Mazkur misol shuni tasdiqlaydiki, Oila yosh avlodni ijtimoiylashtirish, tarbiyalash va o'qitishning eng muhim instituti bo'lganligi sababli, u shuningdek, yoshning oilasida ulg'ayish va yosh shaxs bo'lib yetishishning butun yo'lida zarur professional yordam va ko'mak bilan ta'minlashni o'z ichiga olishi kerak: oilani mustahkamlash, ota-onalarni o'rgatish, sog'lom oilalarni tarbiyalashda yordam berish, sog'lom oilalarda psixologik yordam berish, oilalarning sog'lom muhitini yaratish va

psixologik yordam ko'rsatish. oilalar, shuningdek, yosh avlodning qulay jismoniy va ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi boshqa faoliyat turlari [9, – C.209].

Hozirgi kunda oila ham butun ijtimoiy taraqqiyotda, ham har bir inson hayotida alohida o'rin tutadi. U shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi; shaxsning jamiyatda o'z o'rnini egallashiga, o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglashiga yordam beradi, bir tomondan, uni himoya qiladi, shaxsiy hayoti sohasini himoya qiladi, ikkinchi tomondan, uning individualligini saqlab qolishga yordam beradi [10]. Mazkur misollar shuni tasdiqlaydiki, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida oilaning ahamiyati yuqori. Shuningdek oiladagi muhit yosh avlodning shakllanishi uchun muhim. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning so'zlariga ko'ra: Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot qurish deganidir. Biz tarixan qisqa fursat ichida boshqa sohalarda bo'lgani kabi bu boradagi maqsad va burchimizni ham yaxshilab anglab yetdik [11, – B.55]. Sog'lom avlod shakllansa sog'lom oila shakllanishi bilan birgalikda, ziyoli, ilmi oila farovon oila qurish demakdir, Avvalambor, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdir, zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidir [12, – B.10].

Nazarimizda yoshlarni ijtimoiylashuvidan oldin uning bir qancha shakllanish xususiyatlarini ko'rib chiqsak yaxshi bo'lar edi. Keling Yoshlarning shakllanishida va ijtimoiylashuv jarayonlarida tadqiqotchi olimlarning keltirib o'tgan bir qancha xususiyatlarini aytib o'tsak .

Yoshlarning sotsializatsiya va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi farqlar 2 ta xususiyat bilan belgilanadi. Birinchidan, qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lgan ijtimoiylashuv hali ham ularni ongli ravishda tanlashni nazarda tutadi. Bunday holda, huquq va axloq normalariga zid bo'lganlar to'g'ri kelmaydi. Yoshlar ongi ayniqsa sezgir. Hech bo'lmaganda, bu erta yoshlarga xos bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan yoshlarning munosabati muqarrar ravishda o'zgarishini tan olmaslik mumkin emas. Moslashuv odatda bunday tanlovni o'z ichiga olmaydi.

Ikkinchidan, sotsializatsiya va moslashish bu jarayonlarda rasmiy-taqlid va real komponentlarning nisbati bilan farqlanadi. Ijtimoiy muhitga moslashishni taqlid qilish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin, ammo uning faoliyatining qiymat-me'yoriy asoslarini baham ko'rmasdan. Biroq, "rasmiy ravishda ijtimoiylashish" mumkin emas, chunki jamiyat qadriyatlari va me'yorlarini o'zlashtirish haqiqati shaxsning harakatlari bilan osongina tasdiqlanadi yoki rad etiladi [13, – C.477].

Ijtimoiylashuv institutlarining zaiflashishi va yoshlarning hayotiy resurslar va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishi yoshlar muhitidagi barqarorlikka ta'sir qiluvchi quyidagi omillarning kuchayishiga olib keladi:

- ota-ona oilasidagi ichki aloqalarni yo'q qilish;
- bolalar, o'smirlar va yoshlarning rivojlanishi uchun boshlang'ich shart-sharoitlarning keskin ortib borishi, buning natijasida eng ko'p maosh oladigan kasblar kambag'allar uchun imkonsiz bo'lib, ularning avlodan-avlodga ijtimoiy harakatchanlik imkoniyatlarini cheklaydi;
- yaxshi ish joyi va muvaffaqiyatli martaba uchun kurashish uchun yetarli resurslarga ega bo'lmagan yoshlar orasida pessimistik kayfiyatlarning namoyon bo'lishi, ularning kelajagi uchun ishonchsizlikning sezilarli darajada oshishi;
- talabalar, maktab o'quvchilari, talabalar va ishchi yoshlar uchun bo'sh vaqt va bo'sh vaqtni tashkil yetish bo'yicha normal kredit tizimi va puxta o'ylangan ijtimoiy siyosatning yo'qligi [14, – C.118].

Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy normalar va sanksiyalar orqali tartibga soluvchi ijtimoiylashuv institutlari (oilalar, ta'lim, mehnat, yigitlar uchun armiya va boshqalar) ko'pincha yoshlarning turli guruhlarining o'ziga xos manfaatlariga zid keladi. Shunday qilib, fuqarolik nikohi deb atalmish negizida oila qurayotgan yoshlarning manfaatlarini an'anaviy oila institutiga zid keladi; ta'lim xizmatlari sifatidan norozi bo'lganlar – ta'lim instituti bilan; ish topishda qiyinchiliklarga duch kelganlar — mehnat instituti bilan; o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida — armiya institutida o'qishni davom ettirishga intilayotgan chaqiriluvchilar [15, – C.477].

Mazkur ishda ko‘rib chiqilgan yoshlar ijtimoiylashuv xususiyatlaridan tashqari, fikrimizcha, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga mahalla instituti ham o‘rganilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Ayni vaqtda mahalladagi yoshlar ijtimoiylashuv xususiyatlari ochib berilsa, biz o‘ylaymizki yoshlarning ijtimoiy faolligi oshadi. Mahallada o‘zlikni, odob-axloqimizni, merosi va qadriyatlarimizni zararli g‘oyalar va mafkuralar ta‘siridan avaylab–asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz hamda yoshlar qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mafkuraviy immunitetni hosil qilish uchun yoshlarni sog‘lom, insonparvar g‘oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. Milliy g‘oyaning asosiy vazifasi esa xalqimizda milliy e‘tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirishdan iborat [16, – B.78].

Yoshlarning ma‘naviy shakllanishi, ruhiy jihatdan sog‘lom voyaga yetishi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishida mahallaning o‘rni yuqoridir. Mahallada yoshlarning ijtimoiylashuviga turtki bo‘luvchi omillardan biri bu ularga berilayotgan imkoniyatlarni mahalla instituti tomonida yoshlarga o‘rgatilishi lozim. Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlarni ishlab chiqib, ularni har bir mahallaning sharoitidan kelib chiqqan xolda amalga oshirish muhim omillardan biri. Tadqiqotchi olimlarimizning bir nechta xususiyatlarni keltirib o‘tsak ya‘ni mahallada yoshlarning shakllanishida turtki bo‘luvchi va jamiyatga ijtimoiylashuvida muhim. Bu borada quyidagilarni e‘tibor qaratish lozim:

Birinchidan, mahalla barkamol avlodni shakllantirish borasida olib borilayotgan ta‘lim tarbiyaviy ishlar.

Ikkinchidan, mahalla salomatligi va ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.

Uchinchidan, mahalla yoshlarining huquqiy-ijtimoiy faolligini oshirish.

To‘rtinchidan, mahalla yoshlarining mehnat bilan bandligini ta‘minlash.

Beshinchidan, mahalla yoshlarining ma‘naviy madaniyatini tarbiyalash [17, – B.75].

Fikrimizcha, mahallalarda yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayoni mahalla guzarlarida har xil kunlik tadbirlar uyushtirilishi mahalladagi yoshlarning tarbiyaviy ishlarida mahalla xodimlarining muntazam ravishda ish olib borilishi, yoshlarning faolligini oshirishda asosiy o‘rinlardan biridir. Bitta bolaga yetti mahalla ota-ona deb bekorga aytilmagan yoshlarning ertangi kuni mamlakatimiz rivojlanishi intellektual salohiyatini oshirishda muhim bo‘g‘inlardan biridir.

XULOSA

Demak, Yoshlarning mahallalarda ijtimoiylashuv jarayonlari har bir yosji kattalar tomonidan mas‘ul hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiylashuvida yosh oilaning salomatligi oilalarda ota-onaning o‘rni yuqoriligi, yoshlarda oilaga bo‘lgan mehrning yuqoriligi muhim ahamiyatga egadir. Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida mahallada har bir fuqaro yoshi ulug‘ insonlar mas‘uldir. Yoshlar bizning kelajagimiz deb bejizga aytib o‘tilmagan.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Mirziyoyev Sh. Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega.

1. <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifabirlamchi-ahamiyatga-ega>.

2. Ковалева А.И. Социология молодежи: Теоретические вопросы. – М.: Социум, 1999. – С.351.

3. Крикунова А. Молодежная политика в современной России: понятие, субъекты, факторы формирования // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. 2009. № 101. – С. 278.

4. Грачев.Е.Н. Молодежная политика в европейском союзе: национальный и наднациональный уровни // Федеральное государственное автономное образовательное учреждение высшего образования «Московский государственный институт международных отношений» министерства иностранных дел Российской федерации. 2019. – С.24.

5. Самсонов А.В. Молодежная политика как социально управленческая функция современного государства диссертации. – М., 2005 – С.17.

6. Сорокин П.А. Кризис современной семьи // Вестник Московского университета. Серия 18. Социология и политология. 1997. № 3. – С. 79.
7. Кондратьева Я.В. Организация социальной работы с молодежью на основе комплексного подхода (На Примере Санкт-Петербурга). – Санкт-Петербург, 2005.
8. Ёшларнинг жамиятга ижтимоий мослашув (этносоциологик тадқиқот) – Тошкент: “Tafakkur” 2014. Б. – 23.
9. Кондратьева Я.В. Организация социальной работы с молодежью на основе комплексного подхода (На Примере Санкт-Петербурга). – Санкт-Петербург, 2005.
10. Семья как социальный институт // www.grandars.ru. (Дата обращения: 12.07.2020).
11. Баркамол авлод орзуси – Шарқ нашриёт – матбаа концерни – Тошкент, 1999. – Б. – 55.
12. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони. Тошкент. Маънавият. 1994. 10 – б
13. Ушамирский А.Э. Социальный механизм регулирования процесса реализации интересов молодежи в условиях конфликта. – Белгород, 2020.
14. Работа с молодежью [Электронный ресурс]: учебник – Эл. изд. – Электрон. текстовые дан. (1 файл pdf: 118 с.). – Л.В. Козилова, Н.Н.Фролова. 2024. – Режим доступа: http://scipro.ru/conf/youthwork5_24.pdf. Сист. требования: Adobe Reader; экран 10
15. Ушамирский А.Э. Социальный механизм регулирования процесса реализации интересов молодежи в условиях конфликта. – Белгород, 2020.
16. Эргашев И. ва бошқалар. Миллий истиқлол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи талабалари учун дарслик. -Тошкент.: Академия, 2005. – Б. 78.
17. Ёшларнинг жамиятга ижтимоий мослашув (этносоциологик тадқиқот) – Тошкент: “Tafakkur” 2014. – Б.75.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000